



O'ZBEK TILI TURISTIK TERMINOLOGIYASINING SEMANTIK TASNIFI

Shoira Yuldashova,

Xalqaro innovatsion universitet magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm terminologiyasining leksik-semantik xususiyatlari hamda turistik terminlarning mavzuiy guruhlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda semantik maydon nazariyasining shakllanishi, uning tilshunoslikdagi o'rni va turizm terminologiyasini tasniflashdagi ahamiyati yoritilgan. Turizmni tashkillashtirish va turistik xizmatlar bilan bog'liq terminlar alohida mavzuiy guruh sifatida o'rganilib, ularning ichki leksik-semantik guruhlari tavsiflangan. Shuningdek, turizm sohasiga oid terminlarning ma'naviy xususiyatlari, funksional vazifalari hamda xalqaro terminologik tizim bilan aloqador jihatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida turistik terminlarning o'zbek tilidagi terminologik tizimni boyitishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: turizm terminologiyasi, semantik maydon, leksik-semantik guruh, turistik xizmatlar, turizmni tashkillashtirish, termin, mavzuiy guruh, turizm industriyasi, turoperator, mehmonxona terminlari.

Аннотация. В данной статье анализируются лексико-семантические особенности туристической терминологии и тематические группы туристических терминов. В исследовании рассматриваются формирование теории семантического поля, её место в языкознании и значение в классификации туристической терминологии. Термины, связанные с организацией туризма и туристическими услугами, изучаются как отдельные тематические группы, а также описываются их внутренние лексико-семантические подгруппы. Кроме того, раскрываются семантические особенности туристических терминов, их функциональные свойства и связь с международной терминологической системой. В результате исследования обосновывается роль туристической терминологии в обогащении терминологической системы узбекского языка.

Ключевые слова: туристическая терминология, семантическое поле, лексико-семантическая группа, туристические услуги, организация туризма, термин, тематическая группа, индустрия туризма, тuroperator, гостиничная терминология.

Annotation. This article analyzes the lexical-semantic features of tourism terminology and the thematic groups of tourism-related terms. The study examines the formation of semantic field theory, its role in linguistics, and its significance in the classification of tourism terminology. Terms related to tourism organization and tourism services are studied as separate thematic groups, and their internal lexical-semantic subgroups are described. Furthermore, the semantic characteristics, functional features, and international aspects of tourism terminology are highlighted. The research substantiates the importance of tourism terminology in enriching the terminological system of the Uzbek language.

Keywords: tourism terminology, semantic field, lexical-semantic group, tourism services, tourism organization, term, thematic group, tourism industry, tour operator, hotel terminology.

Til – doimiy harakatdagi murakkab tizim bo'lib, undagi har bir birlik o'zaro munosabatda bo'ladi. XIX asrdan boshlab fizika fanidagi “maydon” tushunchasi tilshunoslikka ham kirib keldi. Bu nazariya til birliklarini alohida-alohida emas, balki muayyan bir butunlik, ya'ni tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Semantik maydon nazariyasi G'arbiy Yevropa tilshunosligida Y.Trir, L.Veysberger, V.Porsig va G.Ipsen kabi olimlarning tadqiqotlari natijasida mustahkam o'rin egalladi.



Keyinchalik rus tilshunosligida A.A.Ufimseva va G.S.Shchur kabi olimlar ushbu nazariyani yanada kengaytirdilar.

G.S.Shchurning tasnifiga ko'ra, tilda quyidagi maydon turlari farqlanadi:

1. Leksik-semantik maydonlar: so'zlar ma'no yaqinligi asosida birlashadi.
2. Funksional maydonlar: grammatik va semantik vazifalar mushtarakligi.
3. Morfemik va fonetik maydonlar: qurilish darajalari bo'yicha guruhlanish.

XIX asrga kelib fizikadagi maydon nazariyasi ta'sirida tilshunoslikda ham "maydon" tushunchasining nazariy talqini yuzaga keldi. Maydon nazariyasining tilshunoslikda paydo bo'lishi va mustahkamlanishi Y.Trir, L.Veysberger, V.Porsig, G.Ipsen, L.Yolles, F.Dornzeyf, V.Vartburg kabi olimlar nomi bilan bog'liq. Ular semantik maydon asosida til birliklarini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan edilar. Keyinchalik bu nazariya A.A.Ufimseva, N.I.Filichyova, Y.N.Karaulov, G.S.Shchur singari rus olimlarining ishlarida yanada kengroq rivojlantirildi. G.S.Shchurning ta'kidlashicha, tilshunoslikda "maydon" tushunchasi ishtirok etgan terminlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: funksional-semantik maydon, morfemik maydon, fonetik maydon, so'z yasash maydoni, leksik maydon, mikromaydon, ko'plik maydoni, nisbat maydoni, vaqt maydoni, komparativ maydon, birlik maydoni, harakat maydoni, o'rin maydoni, kvaziomaydon, inkor maydoni, transformatsion maydon, faoliyat maydoni, holat maydoni kabilar¹.

Til leksik sistemasi muayyan butunlik sanalib, u o'z ichida ma'lum mazmun umumiyliги ostida birlashgan "mavzuiy to'da"lardan tashkil topadi. Har qaysi mavzuiy to'da o'z ichida qator leksik-semantik guruhlarini birlashtiradi. Ma'lum bir belgi asosida bir leksik-semantik guruhga birlashgan har qaysi guruh a'zosida mazkur guruhga birlashish uchun asos bo'lgan sema takrorlanishi zarur. O'z navbatida, til sistemasi tarkibidagi leksik-semantik guruhlar yana ma'lum leksik qatorlardan iborat bo'ladi. Bir leksik qatorni tashkil etgan leksemalarda ham muayyan umumiy belgi – birlashtiruvchi (integral) sema bo'lishi va bu qatorlar tarkibidagi leksemalar bir-biridan o'zaro farqlanuvchi (differensial) semalari bilan ajratilishi zarur.

Terminlar ham maxsus leksik birlik sifatida leksik-semantik jihatdan tasniflanadi. Jumladan, o'zbek tili turistik terminlari dastlab mazmun-mohiyatiga, vazifasiga, keng qamrovliligiga ko'ra bir necha mavzuiy guruhlariga bo'linadi. Bu mavzuiy guruhlar o'z ichida yana leksik-semantik guruhlariga ajraladi.

Terminologik tizimda turizm terminologiyasi ham salmoqli o'rinni egallaydi. Turizm sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri

¹ Алиева М. Дизайнерлик терминларида семантик майдон // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – №1. – Б.107.
Qarag. Шчур Г.С. Теория поля в лингвистике. – Москва: Наука, 1974. – С.19-21.



hisoblanadi. Turizm – bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining drayveri va kadrlar malakasi yuqori bo‘lishini talab qiladigan sohadir. Jamiyatdagi har bir yangilanish tilda o‘z aksini topishi natijasida turizm terminologiyasini lingvistik tahlil qilish dolzarb vazifaga aylandi.

Quyida turizmni tashkillashtirish bilan bog‘liq terminlarning asosiy leksik-semantik guruhlari keltirilgan:

I. Turizmni tashkillashtirish bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar mavzuiy guruhi turizm faoliyatini rejalashtirish, boshqarish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish jarayonlariga oid maxsus tushunchalarni bildiruvchi terminlar majmuasini anglatadi. Ushbu guruh turizm industriyasining tashkiliy-boshqaruv tizimini ifodalovchi leksik birliklardan tashkil topadi. Bu guruh o‘z ichida kichik guruhlarga bo‘linadi.

1. Tur va turizm turlarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi. Ushbu guruh sayohatning maqsadiga, tashkil etilish shakliga va yo‘nalishiga ko‘ra tasniflanadi:

Mazkur guruhga quyidagi terminlar kiradi: *biznes-tur, kiriladigan turizm, sayyor turizm, guruhiy tur, xizmat turizmi, individual turizm, kruiz, tibbiy turizm, naturizm, ilmiy turizm, diniy-ziyosat turizmi, paket tur, rekreatsion turizm, safari, ijtimoiy turizm, fam-tur, fitness-tur, fotosafari, shop-tur, gastronomik turizm.*

Biznes-tur turistning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq safar turi.

Kiriladigan turizm – o‘z davlat hududida xorijiy sayyohlarga turistik xizmat ko‘rsatishga asoslangan turizm. Bu leksik birlik ruscha “вЪездной туризм” terminini kalkalash natijasida hosil bo‘lgan.

Sayyor turizm (вЪездной туризм) – boshqa davlat hududida sayyohlarga turistik xizmat ko‘rsatish maqsadida tashkil qilinadigan turizm. Rus tilidan to‘liq kalka asosida hosil qiligan ushbu termin turistik adabiyotlarda sayyor turizm shaklida beriladi².

2. Turizm ishtirokchilari va asosiy tushunchalarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi. Mazkur guruh terminlari turizm industriyasining kundalik ish jarayonini ifodalovchi terminlar tizimi bo‘lib, ular o‘z ichida quyidagi kichik guruhlarni tashkil qiladi: *aviatarif, agentlik shartnomasi, annulyatsiya, aerofobiya, biznes klass, bronlamoq, voucher, viza, gid-tarjimon, baland mavsum, dayving-operator, turistik xizmat ko‘rsatish haqida shartnoma, yashil yo‘lak, instruktor-boshqaruvchi, konsullik bo‘limi, turizm bo‘yicha menejer, past mavsum, yuk me‘yori, oferta, turistik mahsulotni realizatsiya qilish, pik mavsum, turistlarni sug‘urta qilish, turagent, turistik mahsulot, tuoperator, duty-free.*

² Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011. - B. 82.



3. Turistlarni joylashtirish obyektlarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi: *bir yulduzli mehmonxona, ikki yulduzli mehmonxona, uch yulduzli mehmonxona, to'rt yulduzli mehmonxona, besh yulduzli mehmonxona, apart-otel, biznes-otel, hotel, butik-otel, shahar mehmonxonasi, kongress mehmonxona, mini mehmonxona, motel, pansion, ryokan, rotel, sanatoriya, turbaza, hostel, birinchi klass, turistik klass.*

4. Joylashtirish xonalarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi: *apartament, bungalo, villa, kabana, kottej, bir o'rinli xona, ikki o'rinli xona, uch o'rinli xona, to'rt o'rinli xona, besh o'rinli xona, standart xona, ikki qavatli xona, lyuks xona.*

5. Qanday manzaraga qaraganligiga ko'ra xonalar turlarini ifodalovchi terminlar: *plyajga qaragan xona, shaharga qaragan xona, bog'ga qaragan xona, atrofga qaragan xona, tog'ga qaragan xona, okeanga qaragan xona, parkka qaragan xona, basseyniga qaragan xona, daryoga qaragan xona, dengizga qaragan xona, vodiya qaragan xona.*

II. Turistik xizmatlar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar mavzuiy guruhi. Bu mavzuiy guruh turizm sohasida xizmat ko'rsatish jarayonlari, faoliyat turlari, vositalar va mijozlarga xizmat qilish bilan bog'liq maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar majmuasini anglatadi. Ushbu terminlar turizm industriyasining muayyan semantik maydonini tashkil etadi. Bu guruh o'z ichida quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Ovqatlantirish turlarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi: *polpansion, yengil nonushta, inglizcha nonushta, amerikancha nonushta, a la carte, barbekyu, vegetariancha stol, keytering, halol stol, shvedcha stol.*

2. Restoran va barlarni ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi: *alkogol berilmaydigan restoran, xitoy restorani, egzotik restoran, parhez taomlar restorani, tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan taomlar restorani, dengiz mahsulotlari restorani, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish restorani, vegetarian restorani, plyajdagi restoran, tungi bar, pianino bar.*

3. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlari leksik-semantik guruhi: *animatsiya, outlet, baydarka, balneoterapiya, golf, dayving, kayoning, kayting, kemping, xona xizmati, kurort, mini-bar, paraseyling, rafting, snorkling, snoubording, talassoterapiya, trekking, hammom, avtomobilni ijaraga berish xizmati.*

Yuqoridagi tasnif va tahlillardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, turistik terminologiya tizimida turizmni tashkil etish, boshqarish hamda turistlarga xizmat



ko'rsatish jarayonlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar muhim o'rin egallaydi. Bunday terminlar turizm sohasining amaliy faoliyati, xizmat turlari, tashkiliy mexanizmlari va kommunikativ jarayonlarini ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shu sababli ular mazkur sohaning eng faol va keng qo'llaniladigan terminologik qatlamini tashkil etadi.

Turistik terminlar o'zining ma'noviy xususiyatiga ko'ra bir necha leksik-semantik guruhlariga bo'linadi. Bu jarayonda terminlarning qaysi faoliyat turi bilan bog'liqligi, ya'ni turizmni tashkil qilish, boshqarish, rejalashtirish yoki bevosita xizmat ko'rsatish jarayonlarini ifodalashi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Jumladan, turoperatorlik, marshrut tuzish, bronlashtirish, logistika, transport xizmatlari, mehmonxona faoliyati, ekskursiya xizmatlari, gidlik va servis bilan bog'liq terminlar alohida semantik qatlam sifatida shakllanadi.

Shuningdek, turistik xizmatlarga oid terminlar nafaqat kasbiy tushunchalarni ifodalaydi, balki turizm industriyasining iqtisodiy, madaniy va kommunikativ jihatlarini ham aks ettiradi. Ular orqali turizm sohasidagi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, xizmat ko'rsatish sifati va xalqaro turizm tajribasi bilan bog'liq tushunchalar ifodalanadi. Shu jihatdan qaraganda, turistik terminlarni leksik-semantik guruhlariga ajratish ularning ma'noviy tabiatini, funksional xususiyatlarini hamda qo'llanish doirasini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алиева М. Дизайнерлик терминларида семантик майдон // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – №1. – Б.107.
2. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011. - B. 82.62
3. Шчур Г.С. Теория поля в лингвистике. – Москва: Наука, 1974. – С.19-21.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж.
8. www.uzbekturizm.uz.
9. <http://www.russian.slavica.org>